



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 348 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saïda</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	
Ritmik she'r va harakatli mashqlar yordamida 1-sinf o'quvchilarining diqqatini jamlash	311
Yadgarova Iroda Ikromovna	
Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli.....	314
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Bo'lajak shifokorlarda kasbiy-kommunikativ motivatsiyani xalqaro miqyosda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	318
Qoravoyeva Shoira Zafarjon qizi	



Pedagogik ta'limda media savodxonlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	322
Gulmonova Guli Anvar qizi	
Pedagogik diagnostika vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning individuallashtirilgan ta'limni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi	327
Yuldashev Xusniddin Abdullayevich	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash	333
Bozorova Muxlisa	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik faoliyat turlari.....	337
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna	
Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar individual rivojlanishini baholash yo'nalishlari.....	341
Alimov Azim Anvarovich	



UMUMIY O'RTA TA'LIMDA O'QUVCHILAR INDIVIDUAL RIVOJLANISHINI BAHOLASH YO'NALISHLARI

Alimov Azim Anvarovich

Karakul International School NTMDa o'quv
ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

<https://orcid.org/0009-0008-3864-2048>

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning individual rivojlanishini baholashning mazmuni, metodologik asoslari va asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. O'quvchining ta'limiy natijalarini faqat yakuniy baho orqali aniqlash yetarli emasligi, balki uning bilim va kompetensiyalari bilan bir qatorda kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy-emotsional, ijodiy, refleksiv va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalaridagi o'zgarishlarni ham muntazam kuzatib borish zarurligi asoslangan. Shuningdek, individual rivojlanishni baholashda diagnostik, formativ, mezonli, dinamik va kompetensiyaviy yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi ochib berilgan. Maqolada o'quvchilarning individual ta'lim trayektoriyasini aniqlashda portfolio, o'z-o'zini baholash, refleksiya, pedagogik kuzatuv va raqamli monitoring vositalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Individual rivojlanishni baholashning asosiy maqsadi o'quvchini boshqa o'quvchilar bilan taqqoslash emas, balki uning shaxsiy o'sish dinamikasini aniqlash va keyingi rivojlanishini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashdan iborat ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: individual rivojlanish, o'quvchi, baholash, pedagogik diagnostika, formativ baholash, dinamik baholash, kompetensiya, ta'lim natijasi, individual ta'lim trayektoriyasi, refleksiya, portfolio, raqamli monitoring.

Abstract: This article analyzes the content, methodological foundations, and main directions of assessing students' individual development in the general secondary education system. It is substantiated that determining a student's educational outcomes solely through a final grade is insufficient; rather, it is necessary to regularly monitor changes not only in their knowledge and competencies but also in their cognitive, communicative, socio-emotional, creative, reflective, and independent learning skills. The article also reveals the interrelationship of diagnostic, formative, criterion-based, dynamic, and competency-based approaches in assessing individual development. It highlights the possibilities of using portfolios, self-assessment, reflection, pedagogical observation, and digital monitoring tools in determining students' individual learning trajectories. It is substantiated that the main purpose of assessing individual development is not to compare a student with other students, but to identify the dynamics of their personal growth and provide pedagogical support for their further development.

Key words: individual development, student, assessment, pedagogical diagnostics, formative assessment, dynamic assessment, competence, learning outcome, individual learning trajectory, reflection, portfolio, digital monitoring.

Аннотация: В данной статье проанализированы содержание, методологические основы и основные направления оценивания индивидуального развития учащихся в системе общего среднего образования. Обосновано, что определение образовательных результатов учащегося только посредством итоговой оценки является недостаточным, поэтому необходимо регулярно отслеживать изменения не только в его знаниях и компетенциях, но и в когнитивных, коммуникативных, социально-эмоциональных, творческих, рефлексивных навыках и навыках самостоятельного обучения. Также раскрыта взаимосвязь диагностического, формативного, критериального, динамического и компетентностного подходов к оцениванию индивидуального развития. В статье освещены возможности использования портфолио, самооценивания, рефлексии, педагогического наблюдения и цифрового мониторинга при определении индивидуальной образовательной траектории учащихся. Обосновано, что основной целью оценивания индивидуального развития является не сравнение учащегося с другими учащимися, а определение динамики его личностного роста и педагогическая поддержка его дальнейшего развития.

Ключевые слова: индивидуальное развитие, учащийся, оценивание, педагогическая диагностика, формативное оценивание, динамическое оценивание, компетенция, образовательный результат, индивидуальная образовательная траектория, рефлексия, портфолио, цифровой мониторинг.

**KIRISH**

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'lim sifatini ta'minlash masalasi o'quvchilarning o'quv natijalarini aniqlash bilan bir qatorda ularning individual rivojlanish imkoniyatlarini muntazam o'rganishni ham taqozo etmoqda. An'anaviy ta'lim amaliyotida baholash asosan o'quvchining muayyan fan bo'yicha o'zlashtirish darajasini aniqlash va uni ball yoki baho ko'rinishida ifodalashga yo'naltirilgan. Biroq zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'quvchining ta'limdagi muvaffaqiyatini faqat egallagan bilimlari miqdori bilan o'lchash imkoniyati cheklanganligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchining bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llashi, mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilishi, jamoada ishlashi, o'z faoliyatini tahlil qilishi, ijodiy yondashishi va o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi ham muhim ta'limiy natijalar sifatida qaralmoqda. Shu sababli o'quvchilar individual rivojlanishini baholash tizimi kompleks xarakterga ega bo'lishi lozim.

Individual rivojlanishni baholashning muhim jihati shundan iboratki, bunda o'quvchining natijasi boshqa o'quvchilar natijasi bilan oddiy taqqoslanmaydi. Aksincha, uning avvalgi holati bilan hozirgi natijasi o'rtasidagi o'zgarish, rivojlanish sur'ati va mavjud imkoniyatlari hisobga olinadi. Bunday yondashuv o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va ta'lim olish sur'atlarini e'tiborga olish imkonini beradi.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy baholash konsepsiyalarida ham o'quvchilarning bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va turli kompetensiyalarni namoyon etish qobiliyatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.¹ Bu esa umumiy o'rta ta'limda baholash tizimini o'quvchining kompleks rivojlanishini aniqlashga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

O'quvchining individual rivojlanishini baholashni uning ma'lum vaqt davomida ta'limiy, intellektual, kommunikativ, ijtimoiy va shaxsiy jihatdan erishgan o'zgarishlarini aniqlash jarayoni sifatida izohlash mumkin.

Mazkur jarayon oddiy nazoratdan o'zining maqsadi va mazmuni bilan farqlanadi. Nazorat ko'proq o'quvchining mavjud natijasini aniqlashga xizmat qilsa, individual rivojlanishni baholash natijaning shakllanish dinamikasini, o'quvchining rivojlanish ehtiyojlarini va keyingi pedagogik yordam yo'nalishlarini aniqlashga qaratiladi.

Masalan, bir o'quvchi matematikadan yuqori natija ko'rsatishi, ikkinchi o'quvchi esa nisbatan past natijaga ega bo'lishi mumkin. Biroq ikkinchi o'quvchining dastlabki natijasi bilan keyingi natijasi o'rtasida sezilarli o'sish mavjud bo'lsa, uning individual rivojlanish dinamikasi yuqori bo'lishi mumkin. Demak, faqat yakuniy natijaga asoslangan baholash o'quvchining real rivojlanish jarayonini to'liq aks ettirmaydi.

Individual baholash o'qituvchiga quyidagi savollarga javob topish imkonini beradi: o'quvchi nimani o'rgandi, qaysi kompetensiyalarida o'sish kuzatildi, qanday qiyinchiliklarga duch kelmoqda, qanday yordamga ehtiyoj sezmoqda va keyingi rivojlanish bosqichida qanday pedagogik sharoitlar yaratilishi lozim?

Shu nuqtayi nazardan, baholash ta'lim jarayonining yakuniy bosqichi emas, balki o'qitish, diagnostika, tahlil, korreksiya, rag'batlantirish va rivojlantirishni birlashtiruvchi uzluksiz pedagogik jarayon sifatida qaralishi lozim.

Black va Wiliam tadqiqotlarida formativ baholash o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ehtiyojlarini aniqlash va o'qitish jarayonini ushbu ehtiyojlarga moslashtirishning samarali vositasi sifatida ko'rsatiladi.²

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'quvchilarning individual rivojlanishini baholash masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kompleks yondashuv asosida talqin etiladi. OECD tomonidan ishlab chiqilgan PISA baholash konsepsiyalarida o'quvchilarning bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashi, muammolarni hal qilishi, tanqidiy fikrlashi hamda turli kompetensiyalarni namoyon etish qobiliyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv baholashni faqat yakuniy natijani aniqlash vositasi sifatida emas, balki o'quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish mexanizmi sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

P. Black va D. Wiliam tadqiqotlarida formativ baholash o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlarini aniqlash va o'qitish jarayonini ushbu ehtiyojlarga moslashtirishning samarali vositasi sifatida asoslangan. Shuningdek, J. Hattie va H. Timperley o'quvchiga beriladigan sifatli fikr-mulohaza uning ta'limiy natijalarini yaxshilashga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi.

UNESCO tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini yaxshilash va o'quvchilarning individual rivojlanishini monitoring qilish imkonini beruvchi vosita sifatida baholanadi. European Commission tomonidan ilgari surilgan kompetensiyaviy yondashuvda esa bilim, ko'nikma va munosabatlarni kompleks rivojlantirish hamda baholash zarurligi qayd etiladi. Ushbu ilmiy qarashlar o'quvchilarning individual rivojlanishini diagnostik, formativ, mezonli, dinamik va refleksiv baholash yondashuvlari asosida tashkil etish uchun muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

1 OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2023.

2 Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. 1998. Vol. 5. No. 1. P. 7–74.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarning individual rivojlanishini baholash yo'nalishlarini aniqlash maqsadida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, diagnostik, formativ, mezonli, dinamik va kompetensiyaviy baholash yondashuvlari tahlil qilinib, individual rivojlanish monitoringining asosiy bosqichlari tizimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar individual rivojlanishini baholashni bir nechta o'zaro bog'liq yo'nalishlar asosida tashkil etish mumkin.

Birinchi yo'nalish - bilim va fan kompetensiyalarining rivojlanishini baholash. Mazkur yo'nalishda o'quvchining o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bunda faqat nazariy bilimlarni eslab qolish emas, balki ularni tushunish, amaliyotda qo'llash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyati ham baholanishi zarur.

Fan kompetensiyalarini baholashda test topshiriqlari bilan bir qatorda amaliy mashqlar, muammoli vaziyatlar, loyihalar, tajriba ishlari va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o'quvchining real imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Ikkinchi yo'nalish - kognitiv rivojlanishni baholash. Kognitiv rivojlanish o'quvchining fikrlash, idrok etish, tahlil qilish, umumlashtirish, muammoni aniqlash va yechim topish qobiliyatlari bilan bog'liq. Ayniqsa, tanqidiy va mantiqiy fikrlashning shakllanish darajasini aniqlash zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir.

Kognitiv rivojlanishni baholashda ochiq savollar, muammoli topshiriqlar, tahliliy vazifalar va amaliy vaziyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday topshiriqlar o'quvchining tayyor javobni takrorlash emas, balki mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon etishiga imkon beradi.

Uchinchi yo'nalish - kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni baholash. O'quvchining jamoada ishlashi, o'z fikrini aniq va izchil ifodalashi, suhbatdoshini tinglashi, bahs-munozarada madaniyatli ishtirok etishi va boshqalarning fikrini hurmat qilishi uning individual rivojlanishining muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Mazkur kompetensiyalarni faqat yozma nazorat orqali aniqlash qiyin. Shu sababli kuzatish, guruhli topshiriqlar, loyiha faoliyati, rolli o'yinlar va munozaralardan foydalanish samarali natija beradi.

To'rtinchi yo'nalish - mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini baholash. Zamonaviy ta'lim o'quvchining tayyor bilimni qabul qilishi bilan cheklanmaydi. U mustaqil ravishda axborot izlash, ta'limiy maqsad qo'yish, o'z faoliyatini rejalashtirish va natijalarini tahlil qilishga qodir bo'lishi kerak.

Mustaqil ta'lim ko'nikmalarini baholashda individual topshiriqlar, loyiha ishlari, mustaqil izlanishlar, elektron portfolio va refleksiv kundaliklardan foydalanish mumkin.

Beshinchi yo'nalish - ijodiy rivojlanishni baholash. Ijodkorlik o'quvchining yangi g'oyalarni ishlab chiqishi, mavjud muammolarga noodatiy yechim topishi va original mahsulot yaratishi orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli ijodiy rivojlanishni baholashda bir xil javobga ega yopiq topshiriqlardan ko'ra, ochiq va muammoli topshiriqlarga ustuvorlik berish lozim.

Oldinchi yo'nalish - refleksiv rivojlanishni baholash. Refleksiya o'quvchining o'z faoliyatini anglash, o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, xatolarini tahlil qilish va kelgusidagi faoliyatini rejalashtirish qobiliyatini ifodalaydi.

O'quvchining "Men nimani o'rgandim?", "Menga nima qiyin bo'ldi?", "Qaysi xatolarga yo'l qo'ydim?", "Keyingi faoliyatimda nimani o'zgartiraman?" kabi savollarga javob berishi uning refleksiv rivojlanishini aniqlash imkonini beradi.

Yettinchi yo'nalish - ijtimoiy-emotsional rivojlanishni baholash. O'quvchining o'z his-tuyg'ularini boshqarishi, boshqalarning holatini tushunishi, hamkorlik qilishi, mas'uliyatni his qilishi va ijobiy munosabatlarni shakllantirish olishi uning shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

OECD tadqiqotlarida ham ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar ta'lim va shaxsiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi.³

Sakkizinchi yo'nalish - ta'limiy motivatsiya va o'quv faolligi dinamikasini baholash. O'quvchining darsdagi faolligi, savol berishga intilishi, mustaqil ravishda qo'shimcha ma'lumot izlashga qiziqishi, topshiriqlarni bajarishga bo'lgan munosabati uning rivojlanish jarayonini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardir.

To'qqizinchi yo'nalish - kasbiy yo'nalganlik va hayotiy kompetensiyalarni baholash. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilarida kasbiy qiziqishlar, qobiliyatlar va kelajakdagi faoliyat yo'nalishlarini aniqlash individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3 OECD. Social and Emotional Skills for Better Lives. Paris: OECD Publishing, 2024.



O'quvchilarning individual rivojlanishini baholashda aniq mezon va ko'rsatkichlarning mavjudligi muhim metodik shart hisoblanadi. Mezon baholashning umumiy yo'nalishini belgilasa, ko'rsatkich ushbu rivojlanishning aniq namoyon bo'lish shaklini ifodalaydi.

Masalan, kognitiv rivojlanish mezonini bo'yicha axborotni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, muammoga mustaqil yechim topish va xulosa chiqarish ko'rsatkichlari belgilanadi.

Kommunikativ rivojlanishda esa fikrni aniq ifodalash, suhbatdoshni tinglash, jamoada ishlash va munozarada ishtirok etish kabi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Bunda baholash mezonlari o'quvchiga tushunarli bo'lishi kerak. O'quvchi qanday natijaga erishishi kutilayotganini oldindan bilsa, o'z faoliyatini maqsadli tashkil etish imkoniyati ortadi.

Mezonli baholashda o'quvchini boshqa o'quvchilar bilan taqqoslashdan ko'ra, uning belgilangan mezonlarga nisbatan rivojlanish darajasini aniqlash muhimdir. Bu esa baholashning shaffofligi va obyektivligini oshiradi.

Black va Wiliam fikricha, o'quvchiga uning mavjud natijasi va kutilayotgan natija o'rtasidagi farqni tushuntirish hamda keyingi harakat yo'nalishini ko'rsatish samarali baholashning muhim shartlaridan biridir.⁴

Individual rivojlanishni baholash jarayonida diagnostik baholash boshlang'ich ma'lumotlarni olishga xizmat qiladi. O'quv yili yoki yangi mavzu boshida o'quvchining bilim, ko'nikma va kompetensiyalari diagnostika qilinadi. Natijalar asosida o'qituvchi o'quvchining ehtiyojlarini aniqlaydi.

Formativ baholash esa bevosita ta'lim jarayoni davomida amalga oshiriladi. Uning asosiy vazifasi o'quvchining mavjud holatini aniqlash va keyingi rivojlanish uchun unga konstruktiv fikr-mulohaza berishdan iborat.

Formativ baholashning asosiy vositalariga og'zaki savol-javob, qisqa topshiriqlar, kuzatuv, o'z-o'zini baholash, o'zaro baholash, refleksiya, loyiha va amaliy ishlar kiradi.

Formativ baholashning muhim afzalligi shundaki, xato yakuniy salbiy natija sifatida emas, balki keyingi o'rganish uchun pedagogik axborot sifatida qaraladi. Natijada o'quvchi o'z xatosini aniqlash va uni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, diagnostik baholash o'quvchining "boshlang'ich nuqtasi"ni belgilasa, formativ baholash uning rivojlanish jarayonini kuzatadi, yakuniy baholash esa erishilgan natijalarni umumlashtiradi.

O'quvchining individual rivojlanishini baholashda portfolio texnologiyasi samarali vositalardan biridir. Portfolio o'quvchining ma'lum vaqt davomida bajargan ishlari, ijodiy mahsulotlari, loyihalari, mustaqil izlanishlari, yutuqlari va refleksiv materiallarini tizimli ravishda jamlash imkonini beradi.

Portfolioning asosiy afzalligi shundaki, u o'quvchining bir martalik natijasini emas, balki rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Masalan, yil boshida va yil oxirida bajarilgan yozma ishlarni taqqoslash orqali o'quvchining yozma nutqi, tahliliy fikrlashi yoki ijodiy qobiliyatidagi o'zgarishni aniqlash mumkin.

Dinamik baholash esa o'quvchining rivojlanish sur'atini aniqlashga xizmat qiladi. Bunda muayyan kompetensiyaning vaqt davomida qanday o'zgargani kuzatiladi.

Individual rivojlanish monitoringini "boshlang'ich diagnostika - maqsad belgilash - formativ kuzatuv - tahlil - pedagogik korreksiya - qayta baholash - rivojlanish dinamikasini aniqlash" ketma-ketligida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga jadal kirib kelishi o'quvchilar individual rivojlanishini baholash uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Elektron portfolio, raqamli testlar, ta'lim platformalari va elektron monitoring tizimlari o'quvchining ta'limiy natijalarini uzoq muddat davomida kuzatish imkonini beradi.

Raqamli baholash vositalari yordamida o'quvchining qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotgani, qaysi topshiriqlarni yaxshi bajarayotgani va qaysi kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini aniqlash mumkin.

UNESCOning ta'limda texnologiyalardan foydalanishga bag'ishlangan tadqiqotlarida texnologiya ta'limning o'zini almashtiruvchi vosita emas, balki ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaralishi kerakligi ta'kidlanadi.⁵

Raqamli platformalarda to'plangan ma'lumotlar asosida o'quvchining individual rivojlanish profili shakllantirilishi mumkin. Bunday profilga fanlar bo'yicha natijalar, kompetensiyalar dinamikasi, loyiha faoliyati, mustaqil ishlar, refleksiya va ta'limiy maqsadlar haqidagi ma'lumotlar kiritilishi mumkin.

Biroq raqamli baholash natijalarini avtomatik ravishda yakuniy pedagogik qaror sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq emas. Chunki o'quvchining individual xususiyatlari, psixologik holati, ta'lim muhiti va boshqa omillarni faqat raqamli ko'rsatkichlar orqali to'liq aniqlash imkoniyati mavjud emas.

Individual rivojlanishni baholash samaradorligi o'qituvchining baholash kompetensiyasiga bevosita bog'liq. O'qituvchi baholash maqsadini belgilash, mezon va ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, tegishli metodlarni tanlash, natijalarni tahlil qilish va ular asosida pedagogik qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

4 Black P., Wiliam D. Developing the Theory of Formative Assessment // Educational Assessment, Evaluation and Accountability. 2009. Vol. 21. P. 5–31.

5 UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023.



O'qituvchi faqat baho qo'yuvchi shaxs emas, balki o'quvchining rivojlanishini kuzatuvchi, maslahat beruvchi va pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi subyekt sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Bunda fikr-mulohazaning sifati alohida ahamiyatga ega. O'quvchiga faqat "yaxshi", "qoniqarsiz" yoki "noto'g'ri" kabi umumiy baho berish yetarli emas. Unga nimani to'g'ri bajargani, qaysi jihatni takomillashtirish zarurligi va buni qanday amalga oshirish mumkinligi tushuntirilishi lozim.

Hattie va Timperley tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham samarali feedback o'quvchining ta'limiy natijalarini yaxshilashga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri sifatida ko'rsatilgan.⁶

Shu bilan birga, individual baholash natijalari o'quvchilarni "kuchli" yoki "kuchsiz" guruhlariga ajratish uchun emas, balki ularga individual pedagogik yordam ko'rsatish uchun ishlatilishi kerak.

Individual rivojlanishni baholashda o'quvchining o'z-o'zini baholashi muhim o'rin tutadi. Chunki o'quvchi o'z faoliyati natijasini anglab yetmas ekan, uning mustaqil rivojlanishi barqaror tus olmaydi.

O'z-o'zini baholashda o'quvchi belgilangan mezonlar asosida o'z ishini tahlil qiladi, kuchli va rivojlantirilishi zarur bo'lgan tomonlarini aniqlaydi.

Mazkur jarayonda refleksiv savollar, baholash mezonlari, rubrikalar, chek-listlar va elektron portfolio vositalaridan foydalanish mumkin.

O'zaro baholash ham o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mas'uliyat, kommunikativ madaniyat va baholash mezonlarini tushunish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shunday qilib, o'z-o'zini baholash o'quvchini baholash obyektidan ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi.

Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar individual rivojlanishini baholashni shartli ravishda besh bosqich asosida tashkil etish mumkin (1-jadval).

1-jadval: Individual rivojlanish monitoring bosqichlari

Bosqich	Mazmuni	Natija
1-bosqich	Boshlang'ich diagnostika	O'quvchi holati aniqlanadi
2-bosqich	Maqsad va mezon belgilash	Rivojlanish yo'nalishi aniqlanadi
3-bosqich	Formativ kuzatuv	Doimiy tahlil va feedback
4-bosqich	Pedagogik korreksiya	Kamchiliklar bartaraf etiladi
5-bosqich	Qayta baholash	Rivojlanish dinamikasi aniqlanadi

Birinchi bosqichda o'quvchining boshlang'ich ta'limiy holati diagnostika qilinadi. Ikkinchi bosqichda individual rivojlanish maqsadlari va baholash mezonlari belgilanadi. Uchinchi bosqichda ta'lim jarayoni davomida muntazam formativ kuzatuv amalga oshiriladi. To'rtinchi bosqichda olingan natijalar tahlil qilinib, pedagogik korreksiya choralari belgilanadi. Beshinchi bosqichda qayta baholash o'tkazilib, o'quvchining individual o'sish dinamikasi aniqlanadi.

Mazkur modelning muhim jihati baholash natijasining keyingi pedagogik qaror bilan bog'langanligidir. Agar baholash faqat baho qo'yish bilan yakunlansa, uning rivojlantiruvchi imkoniyati cheklanadi. Aksincha, natijalar tahlil qilinib, ta'lim mazmuni, metodlari va individual yordam shakllari qayta ko'rib chiqilsa, baholash ta'lim sifatini oshirish mexanizmiga aylanadi.

European Commission tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiyalarga asoslangan ta'lim konsepsiyasida ham bilim, ko'nikma va munosabatlarni kompleks tarzda rivojlantirish hamda baholash zarurligi ta'kidlangan.⁷

Shu asosda individual rivojlanishni baholashning umumiy pedagogik algoritmini quyidagicha ifodalash mumkin:

Diagnostika → maqsad belgilash → mezonlarni aniqlash → formativ kuzatuv → fikr-mulohaza → pedagogik korreksiya → qayta baholash → individual rivojlanish dinamikasini aniqlash.

O'quvchilarning individual rivojlanishini baholash tizimini takomillashtirish uchun bir nechta muhim pedagogik shartlarni ta'minlash zarur.

Birinchidan, baholashning maqsadi aniq belgilanishi kerak. Baholashning maqsadi faqat nazorat qilish emas, balki o'quvchining keyingi rivojlanishi uchun zarur ma'lumotlarni olishga qaratilishi lozim.

Ikkinchidan, baholash mezonlari aniq, tushunarli va o'lchanadigan bo'lishi kerak. O'quvchi undan qanday natija kutilayotganini oldindan bilishi lozim.

⁶ Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback // Review of Educational Research. 2007. Vol. 77. No. 1. P. 81–112.

⁷ European Commission. Key Competences for Lifelong Learning. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2019.



Uchinchidan, baholash vositalari xilma-xil bo'lishi zarur. Faqat test natijasi o'quvchining individual rivojlanishini to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli test bilan birga kuzatuv, portfolio, loyiha, amaliy ish, o'z-o'zini baholash va refleksiyadan foydalanish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, baholash jarayonida o'quvchining shaxsiy qadr-qimmati himoya qilinishi kerak. Baholash o'quvchini kamsitish yoki boshqa o'quvchilar bilan salbiy taqqoslash vositasiga aylanmasligi lozim.

Beshinchidan, raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish zarur. Elektron monitoring katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishga yordam beradi, biroq yakuniy pedagogik qaror o'qituvchining kasbiy tahliliga asoslanishi kerak.

Oltinchidan, o'qituvchilarning baholash kompetensiyasini muntazam rivojlantirish talab etiladi. Ayniqsa, formativ baholash, diagnostik vositalar, rubrikalar, portfolio, refleksiya va raqamli baholash texnologiyalari bo'yicha amaliy malakani oshirish muhimdir.

Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar individual rivojlanishini baholash ta'lim sifatini ta'minlashning muhim pedagogik mexanizmlaridan biridir. Mazkur yondashuv an'anaviy "natijani baholash" modelidan farqli ravishda o'quvchining shaxsiy o'sishi, kompetensiyalari, ta'limiy ehtiyojlari va rivojlanish dinamikasini kompleks o'rganishga imkon beradi.

Tadqiqot natijasida individual rivojlanishni baholashning asosiy yo'nalishlari sifatida bilim va fan kompetensiyalari, kognitiv rivojlanish, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar, mustaqil ta'lim olish, ijodkorlik, refleksiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, ta'limiy motivatsiya hamda kasbiy yo'nalganlikni ajratish mumkinligi asoslandi.

Individual baholashda diagnostik, formativ, mezonli, dinamik va refleksiv yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda baholash natijasi faqat yakuniy bahoni shakllantirish uchun emas, balki o'quvchining keyingi rivojlanish strategiyasini belgilash uchun foydalanilishi kerak.

Raqamli texnologiyalar individual rivojlanishni monitoring qilish, elektron portfolio yuritish, o'quvchining natijalar dinamikasini tahlil qilish va individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, raqamli baholash inson omilini to'liq almashtirmasligi, balki pedagogik diagnostikani qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, o'quvchilar individual rivojlanishini baholashning zamonaviy tizimi "nazorat qilish - baho qo'yish" tamoyilidan "diagnostika qilish - rivojlantirish - qo'llab-quvvatlash - natijani qayta baholash" tamoyiliga o'tishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish va umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science, Creative Thinking and Financial Literacy. Paris: OECD Publishing, 2023.
2. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. 1998. Vol. 5. No. 1. P. 7-74.
3. OECD. Social and Emotional Skills for Better Lives: Findings from the OECD Survey on Social and Emotional Skills 2023. Paris: OECD Publishing, 2024.
4. Black P., Wiliam D. Developing the Theory of Formative Assessment // Educational Assessment, Evaluation and Accountability. 2009. Vol. 21. P. 5-31.
5. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023.
6. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback // Review of Educational Research. 2007. Vol. 77. No. 1. P. 81-112.
7. European Commission. Key Competences for Lifelong Learning. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2019.
8. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.